

"TASDIQLAYMAN"

O'zbekiston Respublikasi

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisi



F. Rashidova

2025-yil 17-yanvar

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi yig'ilishining I-son bayoni

Toshkent shahri

2025-yil 17-yanvar

Raislik qiluvchi: – **F. Rashidova** – Jamoatchilik kengashi raisi

Qatnashdilar: – Jamoatchilik kengashi a'zolari, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri hamda tegishli boshqarma va bo'lim boshliqlari, Jamoatchilik kengashi kotibi

KUN TARTIBI:

I. Jamoatchilik kengashi faoliyati sarhisobi;

II. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi faoliyatining ustuvor yo'nalishlari yuzasidan amalga oshirilgan ishlar hisoboti;

III. "O'zbekiston–2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi loyihasi muhokamasi;

IV. Oliy va kasbiy ta'lim, ilm-fan hamda innovatsiyalar sohalarida mavjud muammolarni hal etishga qaratilgan ijtimoiy loyihalar muhokamasi.

V. "Paxtani qayta ishlovchi mashinalarning ishchi organlari bilan o'zaro ta'sirlanishini ifodalovchi qonuniyatlarni o'rganish va matematik modellashtirish" mavzusida taqdim qilingan loyiha natijalari yuzasidan murojaatni ko'rib chiqish.

*(Rashidova, Sharipov, Jamoatchilik kengashi a'zolari, Nodavlat notijorat
tashkilotlari vakillari, Rashidova)*

I. Jamoatchilik kengashi faoliyati sarhisobi.

Kun tartibiga ko'ra, Jamoatchilik kengashi kotibi Nazokat Abduqunduzova kengashning o'tgan 2024-yil davomidagi faoliyati haqida ma'lumot berdi. Hisobot davrida kengash tomonidan **3 ta oliy ta'lim muassasasida o'rganish ishlari** olib borildi. Shu bilan birga, abituriyentlar va talabalarning fikr-mulohazalarini o'rganish maqsadida so'rovnomalar tashkil etildi.

Shuningdek, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan hamkorlikda kengash a'zolari va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirokida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri hamda viloyatlardagi oliy ta'lim muassasalarida yangi qurilgan, foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan yoki hali qurilishi davom etayotgan talabalar turar joylari bilan tanishish maqsadida **3 ta press-tur** uyushtirildi.

Press-turlar davomida mavjud infratuzilma, yashash sharoitlari, talabalarga yaratilgan imkoniyatlar bevosita joyiga chiqqan holda o'rganildi. Tashriflar natijasida aniqlangan muammolarni bartaraf etish yuzasidan mas'ullarga tegishli taklif va tavsiyalar berildi.

II. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi faoliyatining ustuvor yo'nalishlari yuzasidan amalga oshirilgan ishlar

So'ng Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo'ng'iro'tboy Sharipov 2024-yilda vazirlik faoliyatining ustuvor yo'nalishlari yuzasidan amalga oshirilgan ishlarga to'xtaldi.

Oliy ta'lim yo'nalishida:

8 ta oliygoh **3 taga** yiriklashtirilib, **860 shtat birligi** maqbullashtirildi hamda **45,6 mlrd so'm** mablag' iqtisod qilindi;

mazmunan yaqin bakalavriat yo'nalishlari **40 foizga (306 tadan 183 taga)** maqbullashtirildi, TOP-300 oliygohlar dasturlari asosida **1 200 tadan ortiq ta'lim dasturlari** takomillashtirildi;

39 ta ta'lim dasturlari xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazildi, TOP-500 ga kirgan xorijiy oliygohlar bilan **15 ta qo'shma ta'lim dasturi** tashkil etildi;

professor-o'qituvchilarning **4 970 nafari** xorijda malaka oshirdi, **2 510 nafar** xorijiy professor-o'qituvchilar o'quv jarayoniga jalb etildi;

“Avval test, so'ng tanlov” tamoyili asosida bakalavriatga **196 987 nafar** talaba qabul qilindi. **29 313 ta** davlat granti o'rinlari bilim va iqtidorga berilishi natijasida, yetakchi oliygohlardagi grantlar soni oshdi;

o'quv jarayonini tashkil etish, kontrakt, stipendiya to'lash, yotoqxona olish to'liq raqamlashdi, naqd pul aylanmasiga chek qo'yildi. **1 012 ta** shtat qisqartirilib, bir yilda **25,4 mlrd so'm** iqtisod qilindi.

Ma'naviy-ma'rifiy, harbiy vatanparvarlik yo'nalishida:

“Adabiy-ma'rifiy haftaliklar” loyihasi doirasida **94 ta** oliygohda **768 ta** tadbirlar o'tkazilib, **465 ming nafar**, “Ma'rifat ulashib”, “Talabalar ligasi”, “Besh tashabbus”, “Talaba-yugur” tadbirlariga **637 ming nafar** talaba jalb etildi;

330 ming nafar talabanning teatr va muzeylarga tashrifi uyushtirildi, **47 ta** yirik ko'rik-tanlov va festival tashkil etildi;

oliygozlarda **178 nafar** profilaktika inspektorlari faoliyati yo'lga qo'yildi va **180 ta** oliygohda "Qalqon" jamoatchilik tuzilmalari tashkil etildi;

talabalar o'rtasida jinoyatchilik **28,1 foiz (298 taga)**ga kamaydi.

III. "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi loyihasi muhokamasi

"Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yili" doirasida ishlab chiqilgan Davlat dasturi loyihasi yuzasidan oliy ta'lim, ilm-fan va innovatsiyalar yo'nalishlarida amalga oshirilishi ko'zda tutilgan vazifalar muhokama qilindi.

Mazkur jarayonda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga yuklatilgan vazifalar, ularning ustuvor yo'nalishlari, shuningdek, ilmiy-tadqiqotlar, ekologik barqarorlik va innovatsion yondashuvlar orqali mamlakat taraqqiyotiga qo'shiladigan hissa alohida e'tiborga olindi.

Muhokama chog'ida atrof-muhitni muhofaza qilish, "yashil" texnologiyalarni rivojlantirish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash va ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar yuzasidan fikr almashildi.

IV. Oliy va kasbiy ta'lim, ilm-fan hamda innovatsiyalar sohasida mavjud muammolarni hal etishga qaratilgan ijtimoiy loyihalar muhokamasi.

Yurtimizda ta'lim, ilm-fan va innovatsiyalar sohasini rivojlantirish, mazkur yo'nalishlardagi dolzarb muammolarga yechim topish, jamiyatdagi faol fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash, shuningdek, ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash maqsadida qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Ana shunday tashabbuslardan biri sifatida o'tkazilgan navbatdagi davra suhbatida davomida oliy va kasbiy ta'lim, ilm-fan hamda innovatsiyalar sohasida mavjud muammolarni muhokama qilish va ularni bartaraf etishga qaratilgan ijtimoiy loyihalarni belgilashga bag'ishlandi.

Jamoatchilik kengashi raisi Feruza Rashidova ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, ilmiy salohiyatni oshirish, innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish, yoshlarni tadqiqotchilik faoliyatga jalb etishda nodavlat tashkilotlarning ushbu jarayonlardagi ishtiroki va roli kabi bir qator muhim masalalarga to'xtaldi.

Bugungi kunda oliy va kasbiy ta'lim, ilm-fan hamda innovatsiyalar sohasida yuzaga kelayotgan muammolarni hal etish, ularga tizimli va xalqchil

yondashuv asosida yechim topish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biriga aylangan. Ayniqsa, bu jarayonda jamoatchilikning, fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtiroki alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu maqsadda tashkil etilgan muhokamada nodavlat notijorat tashkilotlari, ta'lim muassasalari rahbarlari, yosh tadqiqotchilar va sohadagi mutaxassislar faol va mazmunli muloqot olib borildi. Ishtirokchilar ta'lim sifatini oshirish, ilmiy faoliyatni rag'batlantirish, innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etish, yoshlarni tadqiqotchilikka jalb qilish, shuningdek, inklyuziv ta'limni keng joriy etish masalalari yuzasidan o'z taklif va mulohazalarini bildirishdi.

Ayniqsa, inklyuziv ta'limni rivojlantirish masalasi bugun jamiyatimiz uchun o'ta dolzarb hisoblanadi. Barcha yoshlar, jismoniy imkoniyati cheklanganlar yoki maxsus ehtiyojlarga ega shaxslar uchun ta'lim olishda teng sharoitlar yaratish, ularning jamiyatda to'liq va faol ishtirokini ta'minlash – bu faqat ijtimoiy adolat masalasi emas, balki barqaror taraqqiyotning kafolatidir. Inklyuziv ta'lim tizimini takomillashtirish, pedagoglarni maxsus tayyorlash, infratuzilmani moslashtirish va keng jamoatchilikning bu boradagi xabardorligini oshirish bo'yicha takliflar ilgari surildi.

Ta'lim, ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi ijtimoiy loyihalarni qo'llab-quvvatlash, davlat va jamoatchilik o'rtasidagi muloqotni mustahkamlash, inklyuziv yondashuvni amaliyotga tatbiq etish kabi masalalar bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilab olishga kelishildi.

Jamoatchilik kengashi ushbu yo'nalishlarda amalga oshiriladigan har qanday tashabbusni qo'llab-quvvatlashga, fuqarolik jamiyati institutlari va vazirlik o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishga tayyor ekani bildirildi.

V. “Paxtani qayta ishlovchi mashinalarning ishchi organlari bilan o‘zaro ta’sirlanishini ifodalovchi qonuniyatlarni o‘rganish va matematik modellashtirish” mavzusida taqdim qilingan loyiha natijalari yuzasidan murojaatni ko‘rib chiqish

Shundan so'ng kun tartibiga muvofiq, Ilm-fan va innovatsion faoliyatni rivojlantirish boshqarmasi (N.Holov) tomonidan “Paxtani qayta ishlovchi mashinalarning ishchi organlari bilan o'zaro ta'sirlanishini ifodalovchi qonuniyatlarni o'rganish va matematik modellashtirish” mavzusida taqdim qilingan loyiha yuzasidan axborot taqdim etdi.

Xususan, 2021-yilda e'lon qilingan 54-tur fundamental loyihalar tanloviga Namangan viloyati hududiy innovatsiya faoliyati va texnologiyalar transferi markazi tomonidan Jo'rayev Anvar Jo'rayevich rahbarligida taqdim etilgan “Paxtani qayta ishlovchi mashinalarning ishchi organlari bilan o'zaro

ta'sirlanishini ifodalovchi qonuniyatlarni o'rganish va matematik modellashtirish" nomli loyiha "Texnika fanlari" yo'nalishi bo'yicha Ilmiy-texnik kengash tomonidan 2022-yil 6-aprelda moliyalashtirishga tavsiya etilgan.

Biroq, 2023-yil 2-may kuni Innovatsion rivojlanish vazirligining 8-son Hay'at yig'ilishida loyiha ko'rib chiqilib, tanlov mezonlaridan biri — "loyiha rahbarining h-indeksi yetarli emasligi" asos qilib olinib, moliyalashtirish rad etilgan.

Mazkur qaror yuzasidan loyiha rahbari tomonidan taqdim etilgan murojaatda, aslida uning h-indeksi ko'rsatkichi belgilangan talabga to'la javob berishi ta'kidlangan. Vaziyatni chuqur o'rganish natijasida loyiha haqiqatdan ham barcha mezon va talablarni to'liq qanoatlantirishi aniqlangan.

Shundan kelib chiqib, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi 133-sonli qarori ("Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida")ga muvofiq, Ilm-fan va innovatsiyalar kengashi tomonidan rad etilgan loyihalarni qayta ko'rib chiqish uchun Jamoatchilik kengashining tavsiyasi olinishi lozimligi belgilangan.

Shu munosabat bilan, yuqoridagi holatlarni inobatga olgan holda, mazkur loyihani moliyalashtirish bo'yicha Jamoatchilik kengashining ijobiy tavsiyasini berish masalasi ko'rib chiqish uchun muhokamaga kiritildi.

Muhokama davomida Jamoatchilik kengashi tomonidan loyiha mazmuni, uning ilmiy ahamiyati va ekspertiza jarayonlari atroflicha ko'rib chiqilib, tegishli xulosalar berildi.

Ko'rilgan masalalar yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalar asosida yig'ilish **qaror qiladi:**

1. Jamoatchilik kengashi kotibi Nazokat Abduqunduzova tomonidan kengashning o'tgan 2024-yil davomidagi faoliyati haqidagi hisoboti va **"O'zbekiston-2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi loyihasi bo'yicha muhokama** ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Namangan viloyati hududiy innovatsiya faoliyati va texnologiyalar transferi markazi tomonidan Jo'rayev Anvar Jo'rayevich rahbarligida taqdim qilingan "Paxtani qayta ishlovchi mashinalarning ishchi organlari bilan o'zaro ta'sirlanishini ifodalovchi qonuniyatlarni o'rganish va matematik modellashtirish" loyihasini moliyalashtirish masalasi Vazirlar Mahkamasining "Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 9-martdagi 133-son qarori talablariga muvofiq Ilm-fan va innovatsiyalar kengashida qayta ko'rib chiqilsin.

3. **Kengash kotibi** (Abduqunduzova) uch kun muddat ichida mazkur bayonni rasmiylashtirilishini ta'minlasin.